O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori v.v.b
Z.Ya.Raxmanov
«____» _____ 2026 yil

«MA’QULLANDI»
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK raisi
A.T. Yusupov
«____» _____ 2026 yil

19.00.01 – «Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasi» ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon

D A S T U R I

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2026- yil «____»_____ ____-sonli qarori bilan tasdiqlangan

TOSHKENT – 2026

ANNOTATSIYA

“Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasi” ixtisosligidan malakaviy imtihon qabul qilish dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta`lim to‘g‘risida” Qonuni hamda psixologiya fanini rivojlantirishga oid mavjud me`yoriy hujjatlar asosida yaratilgan bo‘lib, psixolog kadrlar tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismidir. Uning asosiy maqsadi - psixologiya ixtisosligi bo‘yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini uning ushbu fan shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy kontseptsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog‘ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog‘lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko‘rsatib berishi lozim.

Tuzuvchilar: psixol.f.d., prof. Z.T.Nishanova
psixol.f.d., prof. D.S.Karshiyeva

Taqrizchi: psixol.f.d., prof. N.B.Atabayeva
psixol.f.d., prof. A.M.Nazarov

Ushbu dastur universitet Ilmiy-texnik kengashining 2026- yil 6- yanvardagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan.

SO‘Z BOSHI

Bugungi kunda psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va bu borada ilmiy izlanishlarni kuchaytirish maslasi dolzarb ahamiyatga egadir.

Psixologiya tarixi va nazariyasi ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon qabul qilishda talabgorlarning psixologiya fanidagi nazariy-fundamental muammolarni tushunish, ularni tahlil eta olish va hal etishga nisbatan fanda shakllangan yondashuvlar haqidagi tasavvurlarini nazorat qilish yuzasidan imtihon o‘tkazilishi ko‘zda tutiladi. Bunda ixtisoslik tarkibidagi har bir fan sohasi bo‘yicha quyidagi mavzuviy yo‘nalishlarda talabgorlar bilimining tekshirilishi rejalashtiriladi.

Umumiy psixologiya talabgorning umumpsixologik qonuniyatlar, tamoyillar, psixik jarayon, psixologik holatlar haqidagi bilim darajasini, psixik taraqqiyot va uning namoyon bo‘lish mexanizmlari haqidagi bilimlarni aniqlaydi. Psixik jarayonlar va uning rivojlanish qonuniyatlari, psixologik holatlarning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni, psixologik xususiyatlarning shaxs hayotida namoyon bo‘lish tamoyillari borasidagi ilmiy bilimlar darajasi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qiladi.

Shaxs psixologiyasida talabgorning shaxs nazariyasi, shaxs tiplari, shaxs individual-psixologik xususiyatlari, shaxs taraqqiyotiga ta`sir etuvchi omillar, shaxsning psixologik himoya mexanizmlari, shaxs shakllanishiga oid nazariy-ilmiy qarashlar bilan bog‘liq bilimlarni egallaganlik darajasini aniqlash nazarda tutilgan.

Dastur psixologiya tarixi, umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi borasidagi qarashlarning o‘zaro bog‘liq jihatlarini bayon etishga mo‘ljallangan. Psixologik fikr rivojlanishini izchil o‘rganish bo‘lg‘usi mutaxassislarga hozirgi davrda o‘tmishning ilg‘or psixologiyasini uzviy davomi ekanligini ko‘rsatish kelajak psixologik fikrlar taraqqiyoti yo‘nalishlarini anglab olishga yordam beradi.

“Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasi” ixtisosligi bo‘yicha dasturning maqsad va vazifalari: talabgorlarni hozirgi zamon psixologiya fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish; psixologik fikrlarni shakllanishi negizini o‘rganish va tadqiq etish; psixologik bilimlarning nazariy asoslarini yaratish; umumiy tarraqqiyot mezonlari hamda psixik tamoyillarni tadqiq etish; Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqa mutafakkirlarning pedagogik-psixologik qarashlari hamda mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning nutqlaridagi shaxs shakllanishi borasidagi tamoyillarni bilish; psixologiya sohalari, psixologiyaning zamonaviy tamoyillari hamda ularni amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

“Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasi” fanidan bilim va ko‘nikmalarga qo‘yiladigan talablar:

mazkur ixtisoslikni o‘rganish jarayonida quyidagi tushunchalarni bilish va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarur:

- psixologiyaning fan sifatidagi tavsifi, fanlar tizimidagi o‘rni;
- psixika va ongning filogenezdagi taraqqiyoti haqidagi ilmiy nazariy qarashlar;
- muloqot va faoliyatning psixologik tavsifi, ularning psixika taraqqiyotidagi roli;
- bilish jarayonlari, ularning bir-biri bilan hamda psixik holat, psixik xususiyatlari bilan aloqasi;
- psixik holat va xususiyatlar, ularning eksperimental tadqiq etilishi muammolari.
-shaxs psixologiyasi muammolariga nisbatan mavjud turli nazariy yondashuvlar;
- shaxs strukturasi, shaxs yo‘nalganligining asosiy tarkibiy qismlari;
- shaxs psixodiagnostikasining asosiy yo‘nalishlari va muammolari;
-psixologiyada shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi va o‘zini-o‘zi tarbiyalashi muammosi;
- shaxs psixologiyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari.
- Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari (Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, A.Navoiy va b.);
- qadimgi Sharq davlatlarida ilk psixologik bilimlarning shakllanishi;
- qadimgi yunon faylasuflarining falsafiy-psixologik qarashlari;

-zamonaviy psixologiya fanidagi yirik ilmiy maktablar va yo‘nalishlar;

- zamonaviy psixologiya fanining O‘zbekistonda rivojlanish tarixidan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi zarur.

Talabgor “Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasi” fanini o‘rganish davomida psixikaning evolyutsiyasi, psixik jarayonning psixofiziologik asoslari, psixik jarayonlarni rivojlanish qonuniyatlari, shaxs psixologiyasi va uning tipologiyasiga oid qarashlarni tahlil qilish, ilmiy-amaliy farazlarni muayyan kontseptual qarashlar asosida tizimlashtira olishi hamda amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajarish ko‘nikmasini namoyon eta olishlari zarur.

Talabgorning Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasidan o‘rganilishi zarur bo‘lgan minimum bilimlar mazmuni.

1. Psixologiya tarixi fanining predmeti va metodlari. Psixologiyani rivojlanish bosqichlari. Psixologiya rivojlanishining asosiy omillari va tamoyillari. Antik davrning psixologik nazariyalari. O‘rta asrlarda psixologiyaning umumiy tavsifi. V-XI asrlarda Yevropa psixologiyasining rivojlanishi. Yangi davrda psixologiyani rivojlanishi va uning birinchi nazariyasi. Psixologiyada ratsionalizm va sensualizm. XVIII asr psixologiyasiga umumiy tavsif. Frantsuz va nemis psixologiyasining rivojlanishi. Assotsiativ psixologiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishi. Assotsiativ psixologiyaning klassik nazariyasi. XIX asrning ikkinchi yarmida assotsiativ psixologiyani rivojlanishi. Eksperimental psixologiyani shakllanishi.

2. Yangi psixologik maktablarni shakllanishi va rivojlanishi. Strukturalizm. Vyurtsburg maktabi. Frantsuz psixologiya maktabi. Psixologiyada metodologik inqiroz. Bixeviorizmga umumiy tavsifnoma. Neobixeviorizmning yuzaga kelishi va rivojlanishi. Geshtaltpsixologiyaga umumiy tavsif. Psixoanaliz va uning rivojlanishi. K.Yungning analitik psixologiyasi. Adlerning individual psixologiyasi. Gumanistik psixologiyaga umumiy tavsif. Gumanistik psixologiyaning birinchi nazariyasi. Rodjers va Franklning psixoterapevtik va nazariy kontseptsiyasi. Genetik psixologiya. Rossiyada psixologiyaning rivojlanishi.

3. Shaxsni o‘rganishning metodologik asoslari. Inson va insoniyat haqidagi fan. Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Psixologiya fanining tamoyillari. Psixologiyaning asosiy metodlari. Ruh va ong haqidagi antik davr va o‘rta asrlardagi qarashlar. Introspektsiya metodi va o‘zini o‘zi kuzatish muammosi. Bixeviorizm xulq-atvor haqidagi fan. Psixikaning rivojlanish tarixi. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Psixologiyaning sohalari.

4. Psixika haqida tushuncha. Hayvon psixikasining rivojlanishi. Ong va uning taraqqiyoti. Ong haqida tushuncha, inson psixikasi rivojlanishining tarixiy-madaniy kontseptsiyasi. Inson psixikasining rivojlanishi. Inson psixikasining fiziologik asosi. Ongsizlik muammosi. Faoliyatning psixologik tavsifi. Faoliyatning psixologik nazariyalari. Faoliyatning operatsional-texnik jihatlari. Harakatlar fiziologiyasi va faollik fiziologiyasi.

5. Shaxs haqida tushuncha. Shaxs borasida biogenetik va sotsiogenetik nazariya. Shaxs shakllanishi va rivojlanishi. Shaxs nazariyalari.

6. Bilish jarayonlari. Diqqat haqida tushuncha. Diqqat turlari. Diqqat xususiyatlari. Diqqatning rivojlanishi. Sezgi haqida tushuncha. Sezgi turlari. Sezgining xususiyatlari va tavsifi. Sensor adaptatsiya va sezgilarning o‘zaro ta`siri. Sezgining rivojlanishi. Idrokning umumiy tavsifnomasi. Idrokning nerv-fiziologik asosi. Idrok xususiyatlari va turlari. Idrokning individual farqlari va uning rivojlanishi. Idrokda predmet va fon. Fazoni, vaqtni, harakatni idrok qilish. Xotira haqida tushucha va tavsifi. Xotira turlari. Xotira jarayonlari va mexanizmlari. Xotiradagi individual farqlar va rivojlanishi. Xayol haqida tushuncha va uning inson psixik faoliyatidagi roli. Xayol turlari. Xayoliy obrazlarni qayta ishlash mexanizmlari. Xayolning individual farqlari va rivojlanishi. Xayol va ijod. Tafakkur tabiat va uning turlari. Tafakkur shakllari. Tafakkurni o‘rganishga nazariy va empirik yondashuv. Aqliy operatsiyalarning asosiy turlari. Murakkab mantiqiy masalalarni Yechish va ijodiy tafakkur. Tafakkurning rivojlanishi. Nutq haqida tushuncha. Nutqning fiziologik asoslari. Nutqni o‘rganishga nazariy yondashuv. Nutqning turlari. Nutqning rivojlanishi.

7. Psixologik holatlar. Irodaviy harakatlar haqida tushuncha. Iroda borasidagi psixologik nazariyalar. Irodaviy harakatlarning fiziologik motivatsion asoslari. Irodaviy harakat tuzilishi va rivojlanishi. Hissiyotning umumiy tavsifi va uning turlari. Hissiyotning fiziologik asosi va psixologik nazariyalari. Hissiyotning rivojlanishi va inson hayotidagi o‘rni.

8. Shaxs yo‘nalganligi va faoliyat motivi haqida tushuncha. Motivatsiya haqidagi nazariyalar. Motivatsion soha rivojlanishining asosiy qonuniyatlari.

9. Shaxs psixologik xususiyatlari. Qobiliyat haqida tushuncha. Qobiliyat rivojlanishi va individual farqlar. Qobiliyatning rivojlanishi. Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi ta`limotlarning qisqacha mazmuni. Temperamentga psixologik tavsif va inson faoliyati. Xarakter haqida tushuncha. Xarakterni o‘rganishga nazariy va empirik yondashuv. Xarakterning shakllanishi. Temperamentning gumoral, konstitutsional va psixofiziologik nazariyalari haqida umumiy tushuncha. Oliy nerv faoliyati tipi haqidagi nazariy qarashlar.

10. Shaxsda o‘zini-o‘zi anglash va uning paydo bo‘lish jarayoni; o‘zini-o‘zi anglashning tarkibiy komponentlari; o‘zini-o‘zi baholash va «Men» kontseptsiya muammosi; shaxsning o‘zini-o‘zi tarbiyalash maqsad va vazifalari.

19.00.01 – Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasi ixtisosligi bo‘yicha imtihon savollari:

1. Psixologiya fanining fanlar tizimidagi o‘rni va boshqa ilmiy yo‘nalishlar bilan integratsiyasini tahlil qilib bering.
2. Abu Nasr Forobiyning psixologik qarashlari va ularning zamonaviy talqinini tushuntirib bering.
3. Shaxs psixologiyasida tipologik yondashuvning mohiyati va ilmiy asoslarini ko‘rsating.
4. Psixologik tadqiqotlarda metodologik muammolar va ularni hal etish yo‘llarini tahlil qilib bering.
5. Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlari va ularning ilmiy merosini tahlil qilib bering.
6. Shaxs yo‘nalganligi va uning tarkibiy tuzilmasini ilmiy jihatdan ko‘rsatib bering.
7. Psixikaning filogenezda rivojlanishi: A.N.Leontyev va Fabri nazariyasi asosida tahlil qiling.
8. Abu Rayhon Beruniyning psixologik qarashlari va ularning ilmiy ahamiyatini yoritib bering.
9. Psixologiyada shaxs strukturasi muammosi va uning nazariy modellarini tahlil qilib bering.
10. Xayol va intuitsiya: ularning ilmiy ijodiyotdagi o‘rni va funksional ahamiyatini yoritib bering.
11. Alisher Navoiy asarlarida psixologik hodisalarning badiiy ifodasini tahlil qiling.
12. Shaxs qadriyatlari tizimi va qadriyatlar oriyentatsiyasining psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qiling.
13. Psixologiyada intellekt va uni o‘lchash muammosini ilmiy jihatdan yoritib bering.
14. Zamonaviy psixologiya fanining O‘zbekistonda shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qiling.
15. Shaxs psixologiyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsating.
16. Idrok jarayonining ijtimoiy omillarga bog‘liqligi muammosini tahlil qiling.
17. Psixologiyada “ochiq inqiroz” davri: sabablari, oqibatlari va yechim yo‘llarini tahlil qiling.
18. Shaxs psixodiagnostikasining nazariy va amaliy muammolarini ilmiy tahlil qiling.
19. Insonning yuksak hislari: intellektual, estetik, axloqiy va praksik hislar tahlilini amalga oshiring.
20. Psixologiya fanining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanish jarayonini tahlil qiling
21. Shaxsning shakllanishida muloqotning psixologik ahamiyatini ko‘rsating.
22. Temperamentning fiziologik asoslari va individual farqlarni ilmiy jihatdan yoritib bering.
23. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida dastlabki psixologik bilimlarning shakllanishi jarayonlarini tahlil qilib bering.
24. Shaxsning irodaviy sifatlari va ularning shakllanish jarayonini ilmiy jihatdan asoslab bering.
25. Psixologiya tarixida ongning ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ajratilishi muammosini yoritib bering.
26. Qadimgi yunon mutafakkirlarining falsafiy-psixologik qarashlarini tahlil qiling.
27. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi va o‘z-o‘zini tarbiyalashi muammosini tushuntirib bering.
28. Tafakkur va mustaqil fikrlash muammosining psixologik tahlilini amalga oshiring.
29. Zamonaviy psixologiyada yirik ilmiy maktablar va nazariy yo‘nalishlarni ilmiy jihatdan tahlil qiling.
30. Individ, individuallik va shaxs tushunchalarining o‘zaro munosabatini tushuntirib bering.

31. O‘rta asrlar davrida psixologik g‘oyalarning rivojlanishi bosqichlarini tahlil qiling.
32. XVIII–XIX asrlarda psixologiya fanining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tahlil qiling.
33. XIX–XX asrlarda xorijiy psixologiyaning rivojlanish bosqichlarini tushuntirib bering.
34. XX asrda psixologiya fanining rivojlanish tendensiyalarini ko‘rsating.
35. XX asrning ikkinchi yarmida psixologiyada yangi yo‘nalishlarning vujudga kelishi va ularning ilmiy ahamiyatini tushuntirib bering.
36. Faoliyat tushunchasi va uning psixologik turlarini tahlil qiling.
37. Diqqatning turlari, xususiyatlari va ularni boshqarish mexanizmlarini tahlil qiling.
38. Sezgilarning turlari va ularning psixologik o‘ziga xosligini bayon qiling.
39. Sezgi jarayonidagi asosiy qonuniyatlarni tahlil qiling.
40. Diqqat nazariyalari: asosiy yondashuvlar va tadqiqot natijalarini tahlil qiling.
41. Idrok jarayoni va uning psixologik xususiyatlarini tushuntirib bering.
42. Idrok turlari va ularning differensial xususiyatlari tahlil qiling.
43. Ijtimoiy-pedagogik persepsiya: mazmuni va amaliy ahamiyatini yoritib bering.
44. Xotira va uning asosiy turlarini tahlil qiling.
45. Xotira haqidagi nazariy yondashuvlarni psixologik tahlil qiling.
46. Xayol va uning turlari: ijodiy tafakkur bilan aloqadorlik jihatlarini yoritib bering.
47. Xayol obrazlarini shakllantirishning psixologik mexanizmlarini tushutirib bering.
48. Tafakkur jarayoni va uning turlarini yoritib bering.
49. Tafakkur operatsiyalari va ularning o‘zaro bog‘liqligini tushuntirib bering.
50. Tafakkurning mantiqiy shakllari va ularning psixologik talqinini amalga oshiring.
51. Tafakkur haqidagi asosiy nazariyalar va konseptual yondashuvlarni ilmiy tahlil qiling.
52. Shaxs shakllanishida nutqning psixologik rolini tahlil qiling.
53. Irodaning funksiyalari va psixologik mexanizmlarini tushuntirib bering.
54. Irodaviy akt bosqichlari va ularning dinamikasini tahlil qiling.
55. Hissiyotlar va ularning psixologik turlarini ko‘rsating.
56. Yuksak hislar va ularning inson shaxsida namoyon bo‘lishini tahlil qiling.
57. Hissiyotlar haqidagi nazariy konsepsiyalarni tushuntirib bering.
58. Motiv va motivatsiya: psixologik mohiyati va mexanizmlarini ko‘rsating.
59. Qobiliyatlar va ularning psixologik turlarini tahlil qiling .
60. Xarakter va uning individual xususiyatlarini tahlil qiling.
61. Temperament va uning psixologik turlarini ko‘rsating.
62. Temperamentni o‘rganishdagi zamonaviy yondashuvlarni ko‘rsating.
63. Faoliyatning psixologik nazariyalari va asosiy yo‘nalishlarni tushuntirib bering.
64. Xotiraning nerv-fiziologik asoslarini tahlil qiling.
65. Xotira jarayonlari: qabul qilish, saqlash va esga tushirish bosqichlarini ilmiy asoslab bering.
66. Xotira jarayonlaridagi individual farqlarni tahlil qiling.
67. Ong va uning psixologik taraqqiyotining ilmiy asoslarini tahlil qiling.
68. Ongsizlik hodisasi va uning psixologik tahlilini bayon qiling.
69. Yusuf Xos Xojibning psixologik qarashlarini tushuntirib bering.
70. Assotsionistik psixologiya nazariyasining vujudga kelishi va g‘oyasini tahlil qiling.
71. Geshtaltpsixologiya: asosiy g‘oyalar va ilmiy ahamiyatini tushuntiring.
72. Bixeviorizm: nazariy asoslari va tanqidiy tahlilini amalga oshiring.
73. Psixoanaliz: S.Freyd ta’limoti va uning zamonaviy talqinini yoritib bering.
74. Vyursburg psixologiya maktabi: ilmiy yo‘nalishlari va metodologik o‘ziga xosligini tahlil qiling.
75. Gumanistik psixologiya: asosiy g‘oyalari va namoyandalarini ko‘rsating.
76. Fransuz sotsiologik psixologiya maktabi va uning o‘rnini tahlil qiling.
77. O‘zbekistonda psixologiya fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tushuntirib bering.
78. Psixologiya fanining asosiy tamoyillarini tushuntirib bering.
79. Determinizm tamoyili va uning psixologiyadagi ahamiyatini yoriting.
80. Ong va faoliyatning birligi tamoyilini tahlil qiling.
81. Psixika va ongning faoliyat jarayonida rivojlanishini tushuntirib bering.

82. Shaxsga yo‘naltirilgan didaktika tamoyili va psixologik asoslarini tahlil qiling.
83. Psixologiyada paradigmalar tizimi: klassik va zamonaviy qarashlarni yoritib bering.
84. Uyg‘onish davrida psixologik g‘oyalarning shakllanishini tahlil qiling.
85. Antik davr psixologiyasi: asosiy yo‘nalishlar va vakillarini ko‘rsating.
86. Motivatsiya haqidagi nazariyalar: tarixiy va zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilib bering.
87. Iroda haqidagi psixologik nazariyalarni tahlil qiling.
88. Alisher Navoiy merosidagi psixologik qarashlarni tushuntirib bering.
89. Qur’on va hadis manbalarida psixologik g‘oyalarni ilmiy tahlil qiling.
90. I.M.Sechenovning psixologiya faniga oid ilmiy qarashlarini tushuntirib bering.
91. I.P.Pavlovning psixologiya rivojlanishiga qo‘shgan hissasini tushuntirib bering.
92. E.G‘. G‘oziyevning komil inson konsepsiyasi va ilmiy merosini tushuntirib bering.
93. M.G. Davletshinning psixologik maktabi va ilmiy yondashuvlarini tahlil qiling.
94. G‘.B. Shoumarovning psixologik maktabi va ilmiy merosini tushuntirib bering.
95. V.M. Karimovaning ijtimoiy-psixologik maktabi va ilmiy konsepsiyasini tahlil qilib bering.
96. V. Vundtning psixologiya fanining shakllanishiga qo‘shgan hissasini ko‘rsating.
97. Akkomodatsiya, adaptatsiya va assotsiatsiya: ularning mazmuni va farqlarini psixologik tahlil qilib bering.
98. Psixologiya fanining zamonaviy yutuqlari va yangi yo‘nalishlarini tushuntirib bering.
99. Amir Temurning psixologik qarashlari va ularning tarixiy ahamiyatini yoritib bering.
100. Stress, affekt, depressiya va frustratsiya: mazmuni, o‘zaro farqi va psixologik tahlilini amalga oshiring.

Talabgor quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Baholash mezonlari	**Maks. ball**
1. Fanni bilish darajasi	**30**
Asosiy nazariy bilimlar	15
Ixtisoslik bo‘yicha bilimlar	15
2. Tanqidiy fikrlash va tahlil	**25**
G‘oyalarni umumlashtira olish	13
Mantiqiy fikr va dalil keltirish	12
3. Nutq va taqdimot madaniyati	**20**
Tuzilishi va izchillik	10
Til va ifoda aniqligi	10
4. Savollarga javob berish sifati	**25**
Mazmun va aniqlik	15
Moslashuvchanlik va mulohaza	5
Xotirjamlik, professional yondashuv	5
UMUMIY BALL	**100**

FOYDALANISHGA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta`lim to‘g‘risida”gi qonuni. – Toshkent. O‘zbekiston, 2020
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, «O‘zbekiston», 2016 yil, 56 bet.
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, «O‘zbekiston», 2017 yil, 48 bet.
4. Абдурахмонов В.А. Введение в общую психологию и психотерапию. – 2-е изд, стер.-М.: МОДЭК, 2003. – 304 с.
5. Айзенк Г.Ю. Психология: Польза и вред. Смысл и бессмыслица. Факты и вымысел/ Пер. В.В.Гуриновича. - М.:Харвест, 2003.- 912 с.

6. Асмолов А.Г. Психология личности: принципы общепсихологического анализа. - М.: Смысл, 2001. - 414 с.
7. Векилова С.А. История психологии: конспект лекций. - СПб.: Сова, 2005. - 156
8. Ivanov P.I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. -T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008. 412-б.
9. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. - T.: Fan va texnologiyalar, 2010. 354-б.
10. Котова И.Б. Общая психология: Учебное пособие / И.Б. Котова, О.С. Канаркевич. - М.: Дашков и К, Академцентр, 2013. - 480 с.
11. Климов Е.А. Общая психология. – М.: Речь, 2001. 418-с.
12. Кравченко Ю.Е. Психология эмоции. Классические и современные теории и исследования / Ю.Е. Кравченко. - М.: Форум, 2012. - 544 с.
13. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер,2009. -320 с.
14. Майерс Д. Психология/ Пер с англ. И.А.Карпиков, В.А.Старовойтова. – Мн.: ООО «Попурри», 2001. – 848 с.
15. Маклаков А.Г. Общая психология: Учебник для вузов / А.Г. Маклаков. - СПб.: Питер, 2013. - 583 с.
16. Макарова И.В. Общая психология: Краткий курс лекций / И.В. Макарова. - М.: Юрайт, 2013. - 182 с.
17. Штерн А.С. Введение в психологию. - М.: Академия, 2002. 351-с.
18. Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avezov O.R. Psixologiyasi nazariyasi va tarixi. Darslik. – Toshkent. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2019. – 400 b.
19. Nazarov A.M. Umumiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. “Durdona” 2020 yil. – 345 b.
20. Barotov Sh.R. Umumiy psixologiya. Darslik. Toshkent.: “Navro‘z” nashriyoti, 2020. – 401 b.
21. Muxamedova D.G., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I.Umumiy psixologiya – T.: O‘zMU, 2023. 214-b.
22. G‘oziyev E., Gaziyeva F. Umumiy psixologiya – T.: O‘zMU, 2023. 423-b.
23. Nazarov A.M. Umumiy psixologiya. Darslik. – Buxoro. “Durdona” nashriyoti. 2022 yil. – 232 b.